



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 25 - dekabr

235-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

Yer maydonini qisman zaxiraga qaytarish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, “SURXON-OLTIN MEVASI” agrofirmasining 2021-yil 13-noyabrdagi 01/11-01, 01/11-02 va 01/11-03-son xatlarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. “SURXON-OLTIN MEVASI” agrofirmasining 2021-yil 13-noyabrdagi 01/11-01, 01/11-02 va 01/11-03-son xatlari inobatga olinsin.

2. “SURXON-OLTIN MEVASI” agrofirmasi hisobidagi Jarqo‘rg‘on tumani “Ismoiltepa” massivi “Kamar” MFY hududidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 550 va 553-dala konturlaridagi jami 3,0 gektar bog‘zor yer maydoni Jarqo‘rg‘on tumani hokimligi zahira yer fondiga, Angor tumani “Amudaryo” massivi “Kattaqum” MFY hududidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 181, 75, 85, 86, 148, 90, 91, 92, 95, 98, 106, 108, 109, 111, 113, 118, 119, va 120-dala konturlaridagi jami 141,5 gektar bog‘zor yer maydoni Angor tumani hokimligi zahira yer fondiga, Termiz tumani “Surxon-Xalqobod” massivi hududidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 252-dala konturidagi 9,3 gektar sug‘oriladigan ekin yer maydoni Termiz tumani hokimligi zaxira yer fondiga qaytarib olinsin.

3. Yer maydoni qisman zaxiraga qaytarilishi munosabati bilan viloyat hokimining 2020-yil 30-yanvardagi Q-41-son qarorining 3-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“SURXON-OLTIN MEVASI” agrofirmasi hisobida Angor tumanida 416,4 gektar, Jarqo‘rg‘on tumanida 358,2 gektar va Termiz tumanida 234,7 gektar, jami 1009,3 gektar, shundan 51,4 gektar sug‘oriladigan ekin yer, 550,6 gektar bog‘, 387,3 gektar uzumzor, 2,0 gektar qurilish osti yer maydoni, 8,4 gektar ariq va zovurlar, 4,5 gektar yo‘llar va 5,1 gektar boshqa yerlarni tashkil etishi e’tirof etilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer

maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan tuman yer hisobotiga tegishli o'zgartirish kiritishni ta'minlasin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e'lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari U.Turapov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.